

MUSIQIY TA'LIM TARBIYA JARAYONIDA XORIJIY MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI TAJRIBALARINI O'RGANISH VA AMALIYOTGA TATBIQ ETISH

Eshmuradova Sevara Mamasobir qizi,

Guliston Davlat Pedagogika Instituti

Musiqqa ta'limi yo'nalishi o'quvchisi

bukharbayeva9840@gmail.com +98915007434

Ilmiy rahbar: Nuraliyeva Zuhra Anvarovna

Annotatsiya. Maqolada xorijiy maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy ta'lim jarayoni haqida tanishib o'tamiz hamda aynan xorij mamlakatlaridan musiqiy ta'limda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qanday metod va yangiliklarni O'zbekistondagi maktabgacha ta'lim muassasalarining aynan musiqa tarbiyasi uchun zarur bo'lgan, rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan metodlarni olib kirish to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktabgacha yosh, metod, Respublika, pedagogika, konstruksiya, xorijiy tajriba, pedagogik metodika, Karl Orf yondashuvi, Kodaly tizimi, Reggio Emilia konsepsiyasi, O'zbekiston ta'lim tizimi, musiqiy tarbiya, bolalar psixologiyasi, interaktiv o'yinlar, milliy musiqa, didaktik vositalar, musiqiy rivojlanish, estetik tarbiya.

Abstract. The article will introduce you to the process of music education in foreign preschool institutions and talk about what methods and innovations in music education for preschool children from foreign countries are necessary for music education in preschool institutions in Uzbekistan, which will contribute to its development.

Key words. Preschool education organization, preschool age, method, Republic, pedagogy, construction, foreign experience, pedagogical methodology, Carl Orff approach, Kodály system, Reggio Emilia concept, Uzbek education system, music

education, child psychology, interactive games, national music, didactic tools, musical development, aesthetic education.

Respublikamiz o'z mustaqil fikriga ega, ijodkor, qalban va ruhan san'at, musiqani yaxshi tushunib, aynan musiqa orqali yosh avlodni tarbiyalashdek ulkan maqsadni o'z oldiga qo'yib, unga erishish yo'lida ulkan ishlarni bajarib kelmoqda. Kelgusida maktabgacha ta'lim maskanlarida qanday o'zgarishlar bo'lishi lozim? Uning yanada yuqori o'quv sifatini ta'minlash uchun qanday yangiliklar amaliyotga tatbiq etish mumkin? Ayni savollarga bugungi maqola orqali fikr va mulohaza hamda takliflar yuritib ko'ramiz. Vatanimizda pedagogika fani va amaliyoti vakillari bu kabi muhim masalalar yechimini topish borasida uzluksiz izlanishlar amalga oshirishmoqda.

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda xorijiy davlatlarning maktabgacha ta'lim tizimida musiqiy tarbiyaga oid yondashuvlari, usullari va tajribalari bilan bog'liq bir qator ilmiy-metodik manbalar tahlil qilindi. Adabiyotlar tahlili, mavzuga oid ilg'or nazariyalarni, tajriba asoslarini, ta'lim texnologiyalarini va ularning qo'llanilish shakllarini chuqur o'rganishga xizmat qiladi.

1. Adabiy manbalarni tanlash mezonlari:

Adabiyotlarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilindi:

Ilmiylik va ishonchlilik (tanlangan manbalar ilmiy maqomga ega bo'lishi);

Tajribaning dolzarbligi (xalqaro miqyosda tan olingan ta'lim tizimlarining tajribasi);

Musiqa ta'limiga doir metodik yondashuvlarning mavjudligi;

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi pedagogik yondashuvlarning mavjudligi.

2. Tahlil qilingan asosiy adabiyotlar va manbalar:

Karl Orffning "Orff-Schulwerk" tizimi — bolalarning musiqa vositasida tabiiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi ilg'or metodika;

Zoltan Kodaly metodi — vokal va ritm orqali erta yoshdan musiqiy didni shakllantirish;

Reggio Emilia yondashuvi – Italiyada shakllangan va bolalarning ijodiy imkoniyatlarini oshirishga yo‘naltirilgan;

Montessori metodikasi — erkin tanlov va musiqa vositasida mustaqil ta’limga asoslangan yondashuv;

Finlandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribalari — innovatsion va texnologiyalarga asoslangan musiqiy ta’lim.

3. Tahlil metodlari:

Adabiyotlar tahlilida asosan quyidagi metodlardan foydalanildi:

Taqdim etilgan tajribalarni taqqoslash metodi: turli mamlakatlardagi yondashuvlar o‘zaro solishtirildi.

Kontent tahlil: manbalardagi asosiy tushuncha va metodik yondashuvlar ajratib olindi.

Kuzatuv va tajriba tahlili: mavjud tizimlarning amaliyotdagi samarasi o‘rganildi.

Deduktiv-analitik metod: umumiy nazariyalardan xulosa chiqarish yo‘li bilan yondashildi.

4. Tahlil natijalari:

Musiqiy ta’limda xorijiy tajribalarda bolaning ichki dunyosini uyg‘otish, erkin ifoda qilish, ijodkorlik va ritmik his qilish qobiliyatlarini shakllantirishga katta urg‘u beriladi.

Aksariyat metodlarda musiqani pedagogik vosita sifatida faqat ko‘ngil ochar emas, balki aqliy va emotsiyaviy rivojlanish manbai sifatida qoraladi.

O‘qituvchi va tarbiyachining vazifasi yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, ilhomlantiruvchi sifatida aks ettiriladi, bola markazda turadi.

Bugungi globallashuv sharoitida har bir mamlakat ta’lim tizimi o‘zining tarixiy, madaniy, ijtimoiy va pedagogik asoslariga tayangan holda yangilanmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichi – kelajak avlodning shaxsiyati, axloqiy qarashlari, estetik didi, hissiy va aqliy salohiyati shakllanadigan eng muhim davr hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, musiqiy ta’lim va tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarda nafaqat eshitish

va ifoda etish malakalarini, balki ijodiy tafakkur, emotsional muvozanat, ijtimoiy o'zaro aloqa va madaniy o'zlikni shakllantirish vositasi sifatida muhim o'rin tutadi.

1. Xorijiy maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy tarbiya yondashuvlari

Yevropa mamlakatlari, ayniqsa Germaniya, Vengriya va Skandinaviya davlatlarida bolalarning musiqiy rivojiga holis va innovativ yondashuv kuzatiladi. Bu davlatlarda bolalar musiqani qabul qiluvchi emas, balki uni yaratuvchi, tajriba qiluvchi va izohlovchi shaxs sifatida shakllantiriladi.

Germaniyada Karl Orf metodikasi orqali musiqiy harakatlar, ritmik mashqlar va bolalar cholg'ulari bilan boyitilgan interaktiv o'yinlar orqali bola o'zini ifoda etishga undaladi. Bu metod bola psixologiyasiga mos tushadi va uni tabiiy harakatlar orqali musiqiy ongga olib kiradi.

Vengriyadagi Kodaly tizimi bolalarga xalq kuylarini yod olish, musiqiy eshituvni rivojlantirish, nota o'qishni o'rgatish orqali ularning intellectual va fonetik qobiliyatini kuchaytiradi. Kodalyning "Har bir bola musiqiy iste'dod bilan tug'iladi" degan g'oyasi asosida ish olib boriladi.

Finlyandiya va Shvetsiyada musiqiy tarbiya orqali bolaning tabiiy muhiti, ichki hissiyoti va ijtimoiy munosabatlari birgalikda rivojlantiriladi. Eng muhimi – musiqa bola uchun baxt, erkinlik va shaxsiy ifoda vositasiga aylantiriladi.

Yaponiyada bolalar musiqani nafaqat tinglaydi, balki uni harakat, rasm, qo'l ishlari va tabiat manzaralari orqali ifodalaydi. Bu esa integrativ metod bo'lib, bolaning barcha hissiy a'zolarini uyg'otishga xizmat qiladi.

Italiyadagi Reggio Emilia yondashuvida esa musiqa bolaning ichki ehtiyoji va o'ziga xos salohiyatiga ko'ra qo'llaniladi. Har bir bola "o'z musiqangni top" shiori ostida erkin yo'naltiriladi.

2. Milliy tajriba: O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida musiqiy tarbiya

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikdan so'ng maktabgacha ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Musiqiy tarbiya masalalari ham davlat e'tiborida bo'lib, yangi dasturlar, o'quv-metodik qo'llanmalar, multimedaviy resurslar ishlab chiqilmoqda. Ammo amaliyotda haligacha an'anaviy yondashuv ustunlik qilmoqda:

Musiqqa darslari ko‘pincha tayyor ssenariy asosida, bolalarning qiziqishi va yosh xususiyatlarini hisobga olmagan holda o‘tkaziladi.

Milliy cholg‘ular, xalq kuy va qo‘shiqlari o‘z o‘rniga ega bo‘lsa-da, ular zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtirilmayotganini yashirib bo‘lmaydi.

Bolalarda erkin ijodkorlik, musiqiy improvizatsiya, ifoda qilish kabi ko‘nikmalar kam shakllantirilmoqda.

Shu sababli xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, tanqidiy tahlil qilish va milliy ta’lim tizimiga adaptatsiya qilish zarurati ortib bormoqda.

3. Xorijiy tajribalarni milliy tizimga integratsiyalash imkoniyatlari

Xorijiy tajriba bevosita ko‘chirib olinmasdan, balki O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosi, urf-odatlari va bolalar psixologiyasiga mos holda qayta ishlab chiqilishi kerak. Buning uchun quyidagi yo‘llar tavsiya etiladi:

Interaktiv metodlarni (Orf, Reggio Emilia) milliy cholg‘ular – dutor, doira, rubob, karnay kabi vositalar bilan uyg‘unlashtirish.

Folklor musiqasiga asoslangan nota o‘qitish metodikasini Kodaly tizimiga moslashtirish.

Bolalar uchun musiqiy spektakllar, audiokitoblar va ovozli ertaklar orqali eshituv madaniyatini rivojlantirish.

Pedagoglar malakasini oshirish kurslarida xorijiy musiqiy-pedagogik yondashuvlar asosida maxsus o‘quv modullarni joriy etish.

Milliy identitetni saqlab qolgan holda, musiqani o‘yin, raqs, tasviriy san’at va tabiat bilan integratsiya qilish.

4. Ilmiy asoslangan yondashuv zarurati

Pedagogik faoliyatda musiqaning ijtimoiy-psixologik, estetik, tarbiyaviy va terapevtik funksiyalari mavjud. Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun:

Musiqqa hissiy holatni muvozanatlashtiradi, stressni kamaytiradi, ijobiy ruhiy fon yaratadi;

Ritm orqali bolalarda nutq, harakat va fikr uyg‘unligi shakllanadi;

Milliy musiqiy meros orqali tarixiy xotira, milliy gʻurur va estetik qadriyatlar tarbiyalanadi;

Musiqiy oʻyinlar bolani guruhga moslashishga, ijtimoiy munosabatlar oʻrnatishga oʻrgatadi.

Demak, xorijiy ilgʻor tajribalarni Oʻzbekistonning boy musiqa madaniyati bilan uygʻunlashtirib, maktabgacha taʼlimda musiqiy tarbiyani yangicha bosqichga olib chiqish – bugungi kun talabi hisoblanadi.

Musiqiy taʼlimning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojidagi oʻrni zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlar asosida tobora kengayib bormoqda. Ushbu maqolada olib borilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, xorijiy mamlakatlar tajribasida musiqiy taʼlim bolalarni har tomonlama kamol toptirish vositasi sifatida eʼtirof etilgan boʻlib, ularning taʼlim siyosatida ustuvor yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida bir nechta muhim natijalarga erishildi:

1. Xorijiy taʼlim tizimlarining musiqaga boʻlgan yondashuvi: Germaniya, Yaponiya, Italiya, Vengriya va Skandinaviya davlatlarida musiqiy tarbiya tizimi nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, amaliy mashgʻulotlar, erkin ifoda, musiqa bilan oʻyin elementlarini uygʻunlashtirish orqali bola shaxsining ijodiy, emotsional va ijtimoiy jihatdan yetuk boʻlishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, Orf va Kodaly tizimlarida bola markazga qoʻyilib, musiqani his qilish, tovushlar bilan tajriba oʻtkazish, jismoniy harakatlar orqali musiqani anglashga katta urgʻu beriladi.

2. Oʻzbekiston taʼlim tizimidagi holat: Mamlakatimizda maktabgacha taʼlim sohasida olib borilayotgan islohotlarga qaramay, musiqiy tarbiya borasida hali ham nazariyaga asoslangan, anʼanaviy uslub ustunlik qilmoqda. Baʼzi muassasalarda musiqiy mashgʻulotlar formallikka aylanib, bolalarning faol ishtiroki va musiqiy ifoda erkinligi yetarli darajada taʼminlanmagan.

3. Xalqaro tajribalarning moslashtirish imkoniyati: Tahlillar shuni koʻrsatdiki, xorijiy ilgʻor metodlarni toʻgʻridan-toʻgʻri koʻchirib olish emas, balki ularni mahalliy shart-sharoit, milliy qadriyatlar, oʻzbek bolalarining psixologik va madaniy xususiyatlari asosida moslashtirib, uygʻunlashtirilgan pedagogik yondashuv zarur.

Masalan, o'zbek xalq og'zaki ijodi, milliy kuy va qo'shiqlar xorijiy uslublar bilan integratsiyalashgan holda qo'llanilsa, bu ikki tomonlama pedagogik yutuq beradi.

4. Pedagogik salohiyat masalalari: Musiqiy tarbiya samaradorligini oshirishda o'qituvchi va tarbiyachilarning malakasi hal qiluvchi omildir. Xorijda pedagoglar muntazam ravishda musiqa terapiyasi, bolalar psixologiyasi, musiqa orqali muloqot texnikalari bo'yicha malaka oshiradilar. O'zbekistonda ham bu borada doimiy o'quv-seminarlar, xalqaro tajriba almashinuvi dasturlarini tashkil etish dolzarbdir.

5. Innovatsion texnologiyalar va vositalar: Xorijiy maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy tarbiyada turli interaktiv platformalar, vizual-audio materiallar, raqamli cholg'ular samarali qo'llanmoqda. Bunday vositalar yordamida bolaning musiqa bilan bog'liq estetik dunyoqarashi boyiydi, bu esa O'zbekiston tajribasida ham tatbiq etilishi mumkin bo'lgan istiqbolli yo'nalishlardan biridir.

6. Psixologik va ijtimoiy ta'siri: Musiqa orqali bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi oshadi, u o'z fikrini erkin ifoda eta boshlaydi, emotsiyalarini boshqarish va tushunish qobiliyati ortadi. Bundan tashqari, musiqa bolalarning bir-biriga nisbatan hurmat, hamjihatlik va jamoada ishlash madaniyatini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Musiqiy tarbiya — maktabgacha yoshdagi bolalar rivojida ajralmas vosita bo'lib, u bolaning nafaqat estetik didini, balki intellektual, emotsional, ruhiy va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning zamonaviy ta'lim tizimida ham musiqiy tarbiyani yangicha yondashuvlar asosida rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Xususan, xorijiy ilg'or tajribalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, musiqa o'quvchilarda ritmik sezgi, nutq faoliyati, muvofiqlashtiruvchi harakatlar, diqqat va eshituvni rivojlantirishda samarali vositadir.

Xorijiy mamlakatlar — Germaniya, Italiya, Vengriya, Yaponiya va Skandinaviya davlatlaridagi maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy tarbiya ilg'or metodik yondashuvlar asosida olib borilmoqda. Ayniqsa, Orf, Kodaly, Montessori va Reggio Emilia tizimlari bolalar psixofiziologik xususiyatlariga mos, interfaol, erkin va ijodiy muhitda musiqa bilan shug'ullanish imkonini beradi. Ushbu tizimlarning umumiy

jihati — bolani markazda qo'yish, uning tabiiy qobiliyatlarini musiqa orqali yuzaga chiqarishdir.

Mazkur maqola doirasida olib borilgan ilmiy-tahliliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xorijiy ilg'or tajribalarni O'zbekiston sharoitida amaliyotga tatbiq etish orqali quyidagi samaralarga erishish mumkin:

Birinchidan, musiqiy tarbiya orqali bolalarning ijodkorligi, mustaqil fikrlashi, o'zini erkin ifodalash qobiliyatlari ortadi;

Ikkinchidan, musiqaning terapevtik va ijtimoiy moslashtiruvchi xususiyatlaridan foydalanish imkoniyati kengayadi;

Uchinchidan, bolalar o'rtasida ijobiy munosabat, guruhda ishlash, empatiya kabi ijtimoiy his-tuyg'ular mustahkamlanadi;

To'rtinchidan, tarbiyachilar va pedagoglar uchun yangi pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa ta'lim sifatiga bevosita ta'sir qiladi.

Shunday ekan, xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish va ularni milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, bolalarimizning psixologik xususiyatlari bilan uyg'unlashtirib amaliyotga tatbiq etish maktabgacha ta'limni yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa, o'z navbatida, musiqiy tarbiyani bolalik davrining ajralmas, qiziqarli va foydali qismiga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Orff, Carl. Elementar Music and Movement Education. Schott Music, 1974.
2. Kodály, Zoltán. The Selected Writings of Zoltán Kodály. Boosey & Hawkes, 1974.
3. Edwards, Carolyn. The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Approach to Early Childhood Education. Praeger, 2011.
4. Рəхимов, А. Болаларга мусиқа ўргатиш методикаси. Т.: Ўқитувчи, 1995.
5. Axmedov, M., & Jo'rayev, A. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
6. Karimova, M. Maktabgacha ta'lim metodikasi. Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
7. G'ulomov, N. Estetik tarbiya asoslari. Toshkent: Fan, 2008.

8. Kholmuminov, O. O'zbekiston musiqa tarixi va madaniyati. Toshkent: Musiqa, 2015.
9. ЮНЕСКО. Early Childhood Care and Education in Europe: Tackling Social and Cultural Inequalities. UNESCO Publishing, 2021.
10. Turdiev, S. Musiqa va bola psixologiyasi. Samarqand: Zarafshon, 2022.
11. <https://uzedu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi rasmiy sayti.
12. <https://mdo.uz> – Maktabgacha ta'lim agentligi rasmiy sayti.
13. <https://journals.uz> – O'zbekistondagi ilmiy maqolalar va dissertatsiyalar bazasi.
14. <https://www.researchgate.net> – Xalqaro ilmiy maqolalar va pedagogik tadqiqotlar manbasi.